



## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA TABIATSHUNOSLIK TUSHUNCHALARINI HOSIL QILISHNING AHAMIYATI

**Sayfullayev G`ulom Mahmudovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha  
ta'lim kafedrası dotsenti,

**Nabiyeva Sarvinoz Otabek qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha  
ta'lim yo'nalishi I-bosqich magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14964015>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Fevral 2025 yil  
Ma'qullandi: 25-Fevral 2025 yil  
Nashr qilindi: 28-Fevral 2025 yil

### KEY WORDS

*maktabgacha ta'lim, intellektual rivojlanish, emosional rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, tabiatshunoslik tushunchalari, tarbiyalanuvchilar, tabiat, atrof muhit, ekologiya, o'simlik, hayvon, yashil iqtisodiyot, quyosh, yomg'ir, qor, fasl, bolalar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini hosil qilish, ularning intellektual, emosional va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hamda vositalar ochib beragan. Yosh avlodni tarbiyalashda tabiatshunoslik tushunchalari ularning atrof muhitdagi sodir bo'ladigan hodisa va voqealar asosida shakllanishi muhim ahamiyat kasb etish haqida so'z boradi.*

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ekologik masalalar, tabiatda ro'y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro'y berishi mumkin bo'lgan bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzarb vazifalarga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta'limtarbiyaning o'rni nihoyatda katta.

Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy-huquqiy choralar ko'rish, ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiat, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirish, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz kun sayin chiroy ochib tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, atrof muhitga va tabiatga e'tiborning qaratilishi buni yaqqol ko'rsatgichi sifatida Prizdentimiz 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi yaqqol misol bo'ladi. Yurtimizda ko'pdan-ko'p islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yanada e'tibor kuchayib, yanada takomillashishi uchun ko'plab ishlar amalga bajarilmoqda. Bu islohotlardan yagona maqsad kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ulg'aytirishdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini

shakllantirish ularning atrof-muhitni anglashlari va ekologik madaniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tabiat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, bolalar bog'cha yoshidan boshlab uning qonuniyatlarini tushunib borishi kerak. Ushbu maqolada bolalarda tabiatshunoslik bilimlarini shakllantirish usullari va ahamiyati haqida so'z yuritamiz. Bizga ma'lumki, yosh avlod dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Tabiat - bitmas tuganmas xazina, uning jonli va jonsiz tabiati, turli tuman o'simliklar dunyosi, hayvonot olami yoshlarning qalban to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea- hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo'yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas'uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egabo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Bolalar juda qiziquvchan bo'ladi, u atrofdagi, MTT hovlisidagi rang - barang gullarmi, guldan-gulga qo'nib uchayotgan kapalaklarni, betinim sayrayotgan qushlarni ko'rib quv naydi, yayraydi. Bola ongining o'sishida, jonli va jonsiz tabiatga bo'lgan qiziqishini ortishida tevarak - atrofdagi tabiatning roli beqiyos kattadir. Bolalarni, tabiat bizga in'om etgan ana shu go'zal manzaralari bilan tanishtirib borishimiz, tabiatning har bir giyohi, har bir hayvonotining insonlar uchun, tabiat naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytib, o'rgatib borishimiz, ma'naviy oziqlantirishimiz kerak.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdan maqsad yosh avlodni ona vatanimizni sevishga, uning o'simliklari, hayvonot olamini asrash, saqlash, ko'paytirish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Shuning uchun bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini maktabgacha ta'lim yoshidan boshlamoq kerak. Shunga ko'ra MTT larida ishlayotgan tarbiyachilar oldidagi eng muhim vazifalardan biri bolalarni tabiatning go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz beradigan voqea - hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lish, tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishining mazmuni yoritilib, tabiatdagi mehnatning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish yo'nalishlari belgilab berilgan. Bu talablar bolalarni birinchi navbatda ularning o'zlariga qadr don bo'lgan ular tug'ilib o'sgan o'lkaning tabiati bilan tanishtirilgandagina bajarilishi mumkin, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning bilimini shakllantirish uni o'rab olgan borliq bilan bevosita munosabatda bo'lishi jarayonida amalga oshiriladi. Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari yer maydonlariga ekilgan ekinni parvarish qilish, gullarning har bir gulini, nihollarni asrash, ularni parvarish qilish, gullarni tagini yumshatish, sug'orish kabi ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirish mumkin. Bolalarni bog'cha maydonchasida, tabiat burchagida, o'simlik yoki hayvonni tanishtirish jarayonini tashkil etish kerak bunda tarbiya tanishtirishni qiziqarli jonli sharoitga bog'lab bolalarning e'tiborini o'ziga rom etib tashkil etish kerak.

Tabiat vositasida bolalarga ahloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma - xil. Yoshlarga nafosat tarbiyasini berishdan maqsad shaxsning didini, go'zallikni his etib doimo unga intilib yashash xislatini tarkib toptirishdir. Chindan ham tabiatni uning go'zal manzaralarini bog'- rog'larni sevmagan undan rohatlanmagan kishi bo'lmasa kerak. Gullarning, mevalarning hidi, shakli va rangi, qushlarning sayrash, ariqlardan suvlarning shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning g'ijirlashi - bularning barchasi balalarda tabiatdagi narsa va xodisalami his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va

o'stirish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yosh bolalar chiroyli, yorqin, rang, predmetlarni yaxshi ko'radilar. Go'zallik havas, qiziqish xar bir bola ongida mavjud. Biz bola ongidagi fikridagi ana shu qiziqishni rivojlantirishimiz zarur. Bunda asosiy vosita rolini tabiat o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat vositasida nafas tarbiyasini istagan faslda amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish muhim tarbiyaviy va o'quv jarayonlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda atrof-muhitga qiziqish uyg'otish, kuzatish, tahlil qilish va tabiat hodisalarini tushunish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:

- Jonli va jonsiz tabiatni o'rganish

Hayvonlar, o'simliklar va ularning yashash muhiti haqida tushunchalar berish. Havo, suv, tuproq kabi jonsiz tabiat elementlarining ahamiyatini tushuntirish.

- Tabiat hodisalarini kuzatish va tushuntirish.

Fasllarning o'zgarishi, ob-havo sharoiti va ularning ta'siri haqida tushunchalar hosil qilish. Quyosh, yomg'ir, qor, shamol kabi tabiat hodisalarining sabablarini tushuntirish.

- Ekologik tarbiya

Tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish odatlarini shakllantirish. Chiqindilarni to'g'ri saralashlarini, suv va elektr energiyasini tejashlarini o'rgatish.

- Amaliy mashg'ulotlar va tajribalar

O'simlik ekish va uni parvarish qilish. Oddiy ilmiy tajribalar orqali tabiat qonuniyatlarini tushuntirish. Tabiatga ekskursiyalar uyushtirish.

- O'yin va ijodiy faoliyat orqali o'rganish

Tabiat bilan bog'liq rasmlar chizish, hikoyalar tuzish. Tabiiy materiallardan hunarmandchilik ishlari tayyorlash.

- Metodik yondashuvlar

Kuzatish va suhbat orqali tushuntirish. Interaktiv o'yinlar va eksperimentlar o'tkazish. Multimedia vositalaridan foydalanish (videolar, slaydlar). Kitob va ertaklar orqali tabiat haqidagi bilimlarni kengaytirish.

Tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish bolalarning atrof-muhit haqidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, ularda kuzatuvchanlik, fikrlash va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ushbu jarayon bolalarga tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot olami, ekologik muhit va tabiat qonuniyatlari haqida tushuncha berib, ularni ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishning asosiy ahamiyati

- Bola dunyoqarashini kengaytirish

Bolalar atrofdagi olam bilan tanishadi va undagi hodisalar sababini tushuna boshlaydi.

Tabiiy jarayonlar, fasllarning o'zgarishi, hayvon va o'simliklarning hayot sikli haqida bilim oladi.

- Kuzatuvchanlik va tafakkurni rivojlantirish

Bolalar tabiat hodisalarini kuzatish orqali mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tajribalar va kuzatishlar orqali ularning ilmiy qiziqishi shakllanadi.

- Ekologik tarbiya va tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish

Bolalarda tabiatga nisbatan hurmat va uni asrash hissi shakllanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni saralash, suv va elektr energiyasini tejash kabi ekologik odatlar rivojlanadi.

- Amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish

O'simlik ekish, ularni parvarish qilish, ob-havo sharoitlarini tushunish kabi kundalik hayotda kerak bo'ladigan ko'nikmalar shakllanadi.

Tabiat bilan bog'liq oddiy ilmiy tajribalar orqali bola sabab-va-ta'sir munosabatlarini tushunib boradi.

- Nutq va ijodiy tafakkurni rivojlantirish

Tabiat haqidagi bilimlarni hikoya qilish, tasvirlash, rasmlar chizish, she'rlar o'qish orqali bolalarning nutqi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.

- Sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Ochiq havoda o'yin va mashg'ulotlar o'tkazish orqali bolalar jismoniy faollikka o'rganadi.

Tabiat bilan bevosita muloqot qilish (yurish, ekskursiyalar) bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining xona o'simliklari va ba'zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, unga mehrmuhabbat uyg'otishga yordam beradi. Ekologik ta'lim tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e'tibor bilan qaraydigan urfo datlari, an'analari asosida yoshlarnitarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehrmuhabbat uyg'otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab avaylashga o'rgatishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish bolalarning intellektual, axloqiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni kuzatuvchan, tafakkuri rivojlangan, ekologik ongli va tabiatga mehr-muhabbat bilan qaraydigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun bu jarayon juda muhimdir. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish jarayoni qiziqarli, interaktiv va amaliy faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak. Bu nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki tabiatga mehr-muhabbat va mas'uliyat hissini shakllantirishga ham yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707-sonli qarori.
2. "Ilk qadam" takomillashgan o'quv dasturi 2022 yil fevral.
3. N.M.Quchqarova, I.R.Avazmetova, D.U. Ikramova Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Toshkent-2023
4. I.H.Rajabova, Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari Buxoro-2021
5. Rakhimovich, R. R., & Rustamovich, R. A. (2019). Structure and distribution of animals in the Bukhara region. European science review, 2(1-2), 34-36.
6. Rakhimovich, R. R., Husniddinova, J. H., Bekzod, U. M., & Ranjievna, S. M. (2023). Medicinal Properties and Use of Water Pepper (*Polygonum Hydropiper* L.). JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(3), 45-52.

7. Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). Ecological positions of hunting species in Bukhara region. *International Journal of Genetic Engineering*, 7(1), 15-18.
8. Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). STRUCTURE AND DISTRIBUTION OF HUNTING ANIMALS IN BUKHARA. *Природа Внутренней Азии. Nature of Inner Asia*, (2), 65-68.
9. Rayimov, A., Rakhmonov, R., Nuriddinova, G., & Sanoqulov, R. (2021). BUKHARA REGION AND ITS RELATED TERRITORIES'SPECIES OF REPTILES PART AND NUMBERS'IN SPRING (AYOKOGITMA, KANDIM, AYOKGUJRUMLI, KIZILKUM STATE NATURE RESERVE). *Universum: химия и биология*, (5-2), 62-65.
10. Рахмонов, Р., Рахимов, Ж., Муҳаммаджонов, Б., & Бафоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕТИШТИРИЛАДИГАН МАНЗАРАЛИ БАЛИҚЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 1039-1051.
11. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Rayimov, A. R. (2019). The role of adaptive reactions of starling synantropization. In *Региональные проблемы экологии и охраны животного мира* (pp. 167-169).
12. Rustamovich, R. A., & Rakhimovich, R. R. (2019). The distribution and number of *Acridotheres tristis* in different habitats in the Kyzylkum region. *European science review*, 2(1-2), 37-39.
13. Rakhmonov, R. R., Naimovich, Z. A., & Khudoikulova, N. I. (2021). Possibilities of Introduction of Hunting Tourism in Hunting Farms of Bukhara Region. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(1), 253-256.
14. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., Gulroy, N., & Ramizjon, S. (2021). Around territories of dengizkul, kora-kir and zamonbobo lakes' species of reptiles part and numbers' in spring. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 800-804.
15. Rustamovich, R. A., Rakhimovich, R. R., & Kenjayevana, N. H. (2021). Taxonomic Analysis of Hunting Milk Markers in Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 13.
16. Amanovna, S. M., Rakhmonov, R. R., & Naimovich, Z. A. (2021). *Lagerstroemia indica* l. high potential medicinal plant in introduction conditions of kashkadarya. *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
17. Avaz, R., Rashid, R., Hikoyat, N., & Moxinur, R. (2021). DATA ON THE DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF SANDSTONE *LEPUS CAPENSIS* IN BUKHARA REGION. *Universum: химия и биология*, (7-2 (85)), 4-8.
18. Kholboev, F. R., Rakhmonov, R. R., & Raimov, A. R. (2019). EVALUATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON THE TYPES OF ANIMALS IN BUKHARA REGION. In *Региональные проблемы экологии и охраны животного мира* (pp. 214-216).
19. Рахмонов, Р. Р., & Бакаев, С. Б. (2016). Гнездование перепелятника *Accipiter nisus* в Сармышсае. *Русский орнитологический журнал*, 25(1358), 4214-4215.
20. Рахмонов, Р. Р., Юсупова, С. Ж., Зарипова, З. Н., & Абдурахимова, А. А. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ЙИРТҚИЧ БАЛИҚЛАРИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(10), 71-82.